



## ZAMONAVIY LOGISTIKA TENDENSIYALARI

*Eshboyeva Gulsevar Bekmurod qizi*

*Jizzax politexnika instituti*

*Transport muhandisligi fakulteti*

*111-25-Logistika yo'nalishi 1-kurs talabasi*

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy logistika sohasining jahon iqtisodiyotidagi o'rnini va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Globallashuv, xalqaro savdoning kengayishi va ishlab chiqarish zanjirlarining murakkablashuvi logistika tizimlarini strategik boshqarishni talab etayotgani asoslab berilgan. Rivojlangan davlatlar, xususan AQSh tajribasi hamda O'zbekiston Respublikasida logistika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning iqtisodiy samaradorligi ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari logistika jarayonlarini raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish hamda milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

**Abstract:** This article analyzes the role of modern logistics in the global economy and its development trends. It substantiates that globalization, the expansion of international trade, and the increasing complexity of production chains require strategic management of logistics systems. The experience of developed countries, particularly the United States, as well as the reforms being implemented in the logistics sector of the Republic of Uzbekistan and their economic efficiency are examined. The research findings show that the digitalization of logistics processes and the introduction of innovative technologies play an important role in improving supply chain efficiency, reducing costs, and strengthening national economic competitiveness.



**Аннотация:** В данной статье проанализированы роль современной логистики в мировой экономике и тенденции её развития. Обосновано, что процессы глобализации, расширение международной торговли и усложнение производственных цепочек требуют стратегического управления логистическими системами. Рассмотрен опыт развитых стран, в частности США, а также реформы, реализуемые в сфере логистики Республики Узбекистан, и их экономическая эффективность. Результаты исследования показывают, что цифровизация логистических процессов и внедрение инновационных технологий имеют важное значение для повышения эффективности цепочек поставок, снижения издержек и укрепления конкурентоспособности национальной экономики.

**Key words:** Logistika, tendensiya, tannarxi, savdo transporti, global, jahon, iqtisodiyot, innovatsiyalar, transport-kommunikatsiya, infratuzilma, xalqaro, raqamli logistika, avtomatlashtirish, E-logistika, Yashil logistika, Multimodal logistika, 3PL / 4PL xizmatlari, Elektron tijorat, GPS, Rural Star, Huawei, BeCloud, Global, virtual yordamchilar, ta'minot zanjiri, AI, Big Data, IoT, sun'iy intellekt, Glonas texnologiyalari, modernizatsiya, bojxona, elektron, logistika tizimi, raqamlar, logistika, dronlar, kuryerlar, ombor, elektron tijorat

**Key words:** Logistics, trend, cost, trade transport, global, world economy, innovations, transport and communication infrastructure, international, digital logistics, automation, e-logistics, green logistics, multimodal logistics, 3PL/4PL services, e-commerce, GPS, Rural Star, Huawei, BeCloud, virtual assistants, supply chain, artificial intelligence (AI), Big Data, Internet of Things (IoT), GLONASS technologies, modernization, customs, electronic logistics system, data, drones, couriers, warehouse.

**Ключевое слово:** Логистика, тенденция, себестоимость, торговый транспорт, глобальный, мировая экономика, инновации, транспортно-



коммуникационная инфраструктура, международный, цифровая логистика, автоматизация, е-логистика, зелёная логистика, мультимодальная логистика, услуги 3PL/4PL, электронная коммерция, GPS, Rural Star, Huawei, BeCloud, виртуальные помощники, цепочка поставок, искусственный интеллект (AI), Big Data, Интернет вещей (IoT), технологии ГЛОНАСС, модернизация, таможня, электронная логистическая система, данные, дроны, курьеры, склад.

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, xalqaro savdo hajmining ortib borishi va globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi logistika sohasining ahamiyatini keskin oshirmoqda. Zamonaviy logistika endilikda faqat yuklarni tashish bilan cheklanmay, balki ishlab chiqarishdan tortib iste'molchigacha bo'lgan butun ta'minot zanjirini kompleks boshqarish tizimiga aylangan. Aynan logistika samaradorligi mahsulot tannarxi, yetkazib berish tezligi va bozor raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy logistika tendensiyalarini o'rganish va tahlil qilish nafaqat logistika sohasi mutaxassislari, balki iqtisodiyot, savdo va transport sohalari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada zamonaviy logistikaning asosiy rivojlanish yo'nalishlari, global tendensiyalari hamda ularning iqtisodiy va amaliy ahamiyati yoritib beriladi..

Zamonaviy logistika bugungi kunda iqtisodiyotning muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib, jahon xo'jalik tizimining uzviy qismiga aylangan. So'nggi yillarda respublikada transport-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektron logistika tizimini rivojlantirish, bojxona jarayonlarini soddalashtirish va erkin iqtisodiy zonalarda logistika markazlarini barpo etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.<sup>1</sup> Logistikaning rivojlanishi bir qator iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillar ta'sirida yuzaga kelgan

<sup>1</sup> STAGES OF DEVELOPMENT OF LOGISTICS SYSTEMS IN UZBEKISTAN Eshboyeva Gulsevar  
Bekmurod qizi 2025-yil 138-bet



bo'lib, ularning barchasi ta'minot zanjirining samarali ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Avvalo, globallashuv jarayonlari zamonaviy logistikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Bu bo'yicha Jizzax politexnika institutida ham o'tkazilgan "Zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari" mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-texnik anjumanda logistika jarayonlarining zamonaviy muammolari va ularning yechimlari muhokama qilingan. Ushbu anjumanda ta'kidlanganidek, logistika sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish va jarayonlarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirish mumkin.<sup>2</sup> Xalqaro savdo hajmining kengayishi, ishlab chiqarish jarayonlarining turli mamlakatlarda joylashuvi va bozorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik logistika tizimlarining murakkablashuviga olib keldi. Natijada, yuklarni tezkor, ishonchli va kam xarajat bilan yetkazib berish zarurati paydo bo'ldi. Bu esa logistika faoliyatini strategik darajada boshqarishni talab qildi. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan mamlakatlari, xususan Amerika Qo'shma Shtatlari logistika jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, avtomatlashtirish va mijoz uchun maksimal qulaylik yaratish yo'lida katta natijalarga erishgan. Amerika logistika bozori hajmi bugungi kunda 2,3 trillion dollarni tashkil etadi, bu esa AQSh YaIMining qariyb 8–9 foiziga teng. Birgina Amazon Logistics yiliga 80 milliard dollardan ortiq aylanma yaratadi, Uber Freight esa 6,5 milliard dollarlik yuk tashish operatsiyalarini avtomatlashtiradi.<sup>3</sup> Bu raqamlar logistika bozorini to'liq zamonaviy logistika tendensiyalari qanchalik ulkan moliyaviy natijalarga olib kelishini yaqqol ko'rsatadi. Shu sababli O'zbekistonni ushbu tizimlarni o'rnatish nafaqat ichki xizmatlarni zamonaviylashtiradi, shu bilan birga tranzit saloxiyatini oshiradi.

<sup>2</sup> "Zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari" mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-texnik anjuman materiallari. Jizzax politexnika instituti, 2020 yil 28 may.

<sup>3</sup> Toshboyev A, / Amerika logistika tizimini o'zbekistonga tadbiq etish va uning samaradorlik natijasi, 2025 258-bet



Zamonaviy logistika sohasida yuz berayotgan o'zgarishlar va rivojlanish yo'nalishlarini yanada aniqroq hamda tizimli tarzda yoritish maqsadida 1.1-jadval tuzildi. Ushbu jadvalda zamonaviy logistikaning asosiy tendensiyalari, ularning mazmuni, afzalliklari hamda amaliy qo'llanilish yo'nalishlari umumlashtirilgan holda keltirilgan. Jadval logistika tizimlarining hozirgi holatini tahlil qilish, nazariy bilimlarni amaliy misollar bilan mustahkamlash va mavzuning mohiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

1.1-jadval

| <b>Zamonaviy logistika tendensiyalari</b> | <b>Mazmuni</b>                                                           | <b>Asosiy afzalliklari</b>                  | <b>Amaliy qo'llanilishi</b>                |
|-------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------|--------------------------------------------|
| Raqamli logistika                         | Logistika jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida boshqarish        | Tezkorlik, aniqlik, shaffoflik              | GPS kuzatuv, elektron hujjatlar            |
| Avtomatlashtirish                         | Ombor va tashish jarayonlarini avtomatik tizimlar orqali amalga oshirish | Mehnat unumdorligi oshadi, xatolar kamayadi | Aqlli omborlar, robotlashtirilgan tizimlar |
| E-logistika                               | Elektron tijorat uchun mos logistika tizimi                              | Tez yetkazib berish, mijoz qoniqishi        | Onlayn buyurtmalar, kuryerlik xizmati      |
| Yashil logistika                          | Ekologik xavfsiz va energiya tejankor logistika                          | Atrof-muhitni muhofaza qilish               | Elektr transport, qayta ishlanadigan qadoq |



|                                  |                                              |                              |                                     |
|----------------------------------|----------------------------------------------|------------------------------|-------------------------------------|
| Multimodal logistika             | Bir nechta transport turlaridan foydalanish  | Xarajat va vaqt tejaladi     | Temir yo‘l + avtomobil tashish      |
| Mijozga yo‘naltirilgan logistika | Mijoz ehtiyojiga mos xizmat ko‘rsatish       | Xizmat sifati oshadi         | Real vaqt monitoringi               |
| 3PL / 4PL xizmatlari             | Logistikani tashqi kompaniyalarga topshirish | Xarajatlarni kamaytirish     | Professional logistika operatorlari |
| Last Mile Delivery               | Oxirgi manzilgacha yetkazib berish           | Tez va qulay yetkazib berish | Dronlar, kuryerlar                  |

Ushbu logistika tendensiyalarining asosiy ahamiyati quydagilar:

- ➡ **ta’minot zanjiri samoradorligini oshiradi**
- ➡ **transport va ombor xarajatlarini kamaytiradi**
- ➡ **raqobatdoshlikni kuchaytiradi**
- ➡ **ekologik barqarorlikni taminlaydi**
- ➡ **xalqaro savdoni rivojlantiradi**

Zamonaviy logistikaning asosiy tendensiyalariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak. Zamonaviy logistikaning eng muhim tendensiyalaridan biri bu — raqamlashtirishdir. Logistika jarayonlarida sun‘iy intellekt (AI), Big Data, IoT (Internet of Things) va blokcheyn texnologiyalari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu





texnologiyalar yordamida yuklarni real vaqt rejimida kuzatish, omborlarni avtomatlashtirish, marshrutlarni optimallashtirish va xatoliklarni kamaytirish mumkin. Masalan, aqlli ombor tizimlari yordamida mahsulotlarni saqlash va saralash jarayonlari avtomatik tarzda amalga oshirilmoqda. Bu esa inson omilidan kelib chiqadigan xatolarni kamaytiradi va mehnat unumdorligini oshiradi. Shuningdek 2025 yil 16- aprel sanasida Toshkent davlat transport universitetida "Transport-logistika tizimi va xalqaro transport yo'laklarini raqamlashtirish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar va amaliyotlar" mavzusida seminar o'tkazildi.<sup>4</sup> Ikkinchi asosiy tendensiya bu – elektron tijorat. Elektron tijoratning jadal rivojlanishi logistika tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda. Bugungi kunda mijozlar mahsulotni tez, arzon va sifatli yetkazib berishni talab qilmoqda. Shu sababli e-logistika, ya'ni onlayn savdo uchun moslashtirilgan logistika tizimlari rivojlanmoqda. Shuningdek, zamonaviy logistika tizimlarida multimodal va intermodal tashishlar muhim o'rin egallaydi. Bu bir nechta transport turlaridan (avtomobil, temir yo'l, havo va dengiz transporti) samarali foydalanish orqali yuklarni tez va arzon yetkazib berish imkonini beradi. Ayniqsa, tranzit salohiyati yuqori bo'lgan davlatlar uchun multimodal logistika katta iqtisodiy foyda keltiradi. O'zbekiston misolida, temir yo'l va avtomobil transporti orqali mintaqaviy tranzit rivojlanmoqda. Shuningdek, respublikamizda ham iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini bo'lgan logistika sohasining ri Markaziy Osiyo hududlari uchun mobil aloqa talablariga javob beruvchi sayt uchun uncha qimmat bo'lmagan va yuqori samarali - **Rural Star** yechimini ishlab chiqdi. Bu yechim qishloq hududlaridagi aloqa infratuzilmasi uchun mo'ljallangan investitsiya samaradorligini oshirdi va uyali aloqa qamrovini yaxshilashga erishdi. **Huawei** va **BeCloud** birgalikda Belarusda milliy ma'lumotlarni «o'zida zaxiralisaqlovchi» davlat platformasi - **G-Cloud** ni ishlab chiqdilar. Bu loyiha 5 000 dan ortiq davlat korxonalariga «o'zida zaxirali

<sup>4</sup> <https://gov.uz/oz/mintrans/news/view/46227>



saqlovchi» xizmatlarni ulashga yo‘l ochib berdi, bu esa hukumat va davlat xizmatlari samaradorligini sezilarli darajada oshirdi.<sup>5</sup>

### Hozirgi kunda elektron tijoratning ahamiyati:

➡ Tezkorlik: Mahsulot yoki xizmatlarni bir necha soniya ichida xarid qilish imkoniyati.

➡ Global miqyos: Elektron tijorat geografik cheklovlarni bartaraf etadi, kompaniyalar dunyo bo‘ylab mijozlarga xizmat ko‘rsatishi mumkin.

➡ Xarajatlarni kamaytirish: An'anaviy do‘konlarga nisbatan, onlayn platformalar biznes egalari uchun kam xarajat talab qiladi.

➡ Innovatsion xizmatlar: Elektron tijorat orqali sun‘iy intellekt, virtual yordamchilar va tezkor logistika xizmatlari joriy etiladi.<sup>6</sup>



Elektron tijoratga o‘tib boshlaganimiz sari ko‘rib turibsizki tashqi savdo hajmi yildan yilga oshgan lekin kamaymagan. Shuningdek, raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlari yani mehnat unumdorligini oshiradi, xatolarni

<sup>5</sup> R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI 2020-yil 14-bet

<sup>6</sup> ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARI, Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li, 30-bet





kamaytiradi va kompaniyalarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlaydi. Bundan tashqari transport-logistika jarayonlarini tashkil etishda kompleks yondashuvni amalga oshirish nafaqat bort kompyuterlari, yuklarni shtrixli kodlash texnologiyalari, GSM va Glonas texnologiyalari asosida yuklarni kuzatishning sun'iy yo'ldosh texnologiyalari va boshqalar kabi zamonaviy kompleks axborot tizimlarini qo'llashni, balki yaxlit intellektual transport tizimi va uning infratuzilmasini yaratishni ham nazarda tutadi.<sup>7</sup>

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy logistika global iqtisodiyotning strategik va ajralmas qismiga aylangan. Raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish va sun'iy intellekt logistika jarayonlarining samaradorligini oshirib, xarajatlarni kamaytirish va xizmat sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda. E-tijoratning tez sur'atlarda rivojlanishi esa tezkor, moslashuvchan va aniq logistika tizimlarini talab etadi. Shu bois transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli platformalarni joriy etish, malakali kadrlar tayyorlash, yashil logistika tamoyillarini qo'llash hamda davlat-xususiy hamkorlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Strategik va innovatsion yondashuv logistika sohasining ham, milliy iqtisodiyotning ham raqobatbardoshligini oshiradi.

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati***

1. *STAGES OF DEVELOPMENT OF LOGISTICS SYSTEMS IN UZBEKISTAN* Eshboyeva Gulsevar Bekmurod qizi 2025-yil 138-bet
2. "Zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari" mavzusidagi Respublika onlayn ilmiytexnik anjuman materiallari. Jizzax politehnika instituti, 2020 yil 28 may.

---

<sup>7</sup> Kovray, V. Minskda iqtisodiy intellektual transport tizimi / V. Kovray, L. Dubeshko // Fan va innovatsiyalar. -2021. -No 6. -S. 49-53



3. Toshboyev A, / Amerika logistika tizimini o'zbekistonga tadbiq etish va uning samoradorlik natijasi, 2025 258-bet
4. <https://gov.uz/oz/mintrans/news/view/46227>
5. R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI 2020-yil 14-bet
6. ELEKTRON TIJORAT TIZIMLARI, Qodirov Farrux Ergash o'g'li, 30-bet
7. Kovray, V. Minskdaqi intellektual transport tizimi / V. Kovray, L. Dubeshko // Fan va innovatsiyalar. -2021. -No 6. -S. 49-53
8. STAGES OF DEVELOPMENT OF LOGISTICS SYSTEMS IN UZBEKISTAN Eshboyeva Gulsevar Bekmurod qizi 2025-yil 138-bet